

**ARTEMISIA L. TURKUM TURLARINING AREALLAR BO'YICHA
TAQSIMLANISHI**

Quranbaeva Mexriniso Omonboy qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti stajyor tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7223275>

Kalit so'zlar: Artemisia turanica, Artemisia diffusa, areal, tip, turkum tur, plyuregional, provintsiy, tog', yaylov.

Insoniyatning kundalik hayotida o'simliklarning ahamiyati juda katta, shuningdek, o'simliklar muhim tabiiy geografik omil sifatida yer yuzasidagi suv parlanishida, shamolning kuchli yo'nalishiga, hayvonlarning hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda o'simlik zaxiralaridan xom-ashyo sifatida foydalanishga ko'proq e'tibor berilmoqda. Chunki ularga bo'lgan talab yildan yilga ortib bormoqdi. Respublikamizning boy xazinasini hisoblangan bu o'simliklar cho'l mintaqasidan tortib toki yaylov mintaqasigacha keng tarqalgan yoki aytishimiz mumkin, o'simliklar dunyosining vakillarini barcha joylarda suvda, quruqlikda, tog'da, cho'lda, dashtda uchratish mumkin[1].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda Artemisia L. turkum turlari respublikamizning barcha joylarida ayniqsa, aholi yashaydigan joylarda, yo'l yoqalarida, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, suv bo'ylarida va ekinzorlarda begona o't sifatida o'sadi.

Artemisia L. turkum turlari areallar tiplarini aniqlashda 8 tipi asos deb topildi.

Areallar tiplari.

1. Garbiy Tiyonshan - Pomir Oloy tipi. G'arbiy Tiyonshan va Pomir-Oloyni qamrab oladi. Arealning bu tipi 3 turni (21,5%) o'z ichiga oladi: Artemisia ferganensis, Artemisia namanganica, Artemisia eramophila.
2. To'g'li O'rta Osiyo tipi. Bu tip O'rta Osiyo provintsiyasi chegarasida b'lib, (G'arbiy Tiyonshan, Sharqiy Pomir, Pomir-Oloy) 2 turni o'z ichiga oladi: Artemisia turanica, Artemisia diffusa.
3. Tarbaqatoy tog'li O'rta Osiyo tipi. Bu tip Tog'li O'rta Osiyo, Jung'or Olatovi, Tarbaqatoy, Kulja va Sintszyan chegarasida bo'lib, 1 turni (7,1%) o'z ichiga oladi: Artemisia leucodus.
4. Turon tipi. Arealning bu tipi O'rta Osiyo tekisliklari va ularni o'rab turuvchi tog'lar tizimi yonbag'irlarida bo'lib, qisman Kulja, Qashqar, Shimoliy Afg'oniston, Eronga chiqadi. Tarkibida 1 tur (7,1%) mavjud: Artemisia serotina.
5. O'rta Osiyo tipi. O'rta Osiyo tog' tizmalarining Tarbaqatoydan Kopetog'gacha bo'lgan chegarasi doirasida bo'lib, qisman Garbiy Mo'g'uliston va



Shimoliy Eronga chiqadi. Arealning bu tipi 2 turni (14,3%) o'z ichiga oladi: Artemisia subsalsa va Artemisia valida [3].

6. Sharqiy-qadimiy O'rta yer tipi. Balqon va Kichik Osiyodan G'arbiy Ximoloy va Oltoygacha bo'lib, Suriya, Eron, Kavkazorti, qisman Tibet va Sintszyanni qamrab oladi. Arealning bu tipi 1 turni (7,1%) o'z ichiga oladi: Artemisia tournefortiana.

7. Qadimiy O'rta yer tipi. Ispaniya va Marokkoda G'arbiy Ximoloy, G'arbiy Xitoy va G'arbiy Mo'g'uliston hamda qisman Markaziy Evropagacha bo'lgan xududlarni qamrab oladi. Arealning bu tipi tarkibida 1 tur (7,1%) mavjud: Artemisia scoparia.

8. Golarktika tipi. Shimoliy yarim sharning quruqliklarini qamrab oladi. Tarkibida 3 ta tur (21,5%) mavjud: Artemisia vulgaris, Artemisia annua, Artemisia sinthium.

Areallar tiplari taxlili natijalari shuni ko'rsatadiki, shuvoq turkumi turlarining 60% dan ko'prog'i (9 tur) O'rta Osiyo provintsiyasi chegarasidan chiqmaydigan turlar xisoblanadi.

Shuvoq turkumi turlarining 70% dan ko'prog'i qadimiy O'rta yer viloyati chegarasida tarqalgan bo'lib, bu shifobaxsh shuvoq turkumi turlarini tipik qadimiy O'rta yer turlari ekanligini tasdiqlaydi[2].

Arealning plyuregional tiplari guruxi (Golarktika) tarkibiga 3 turkum (21,5%) birlashtiradi (1-jadval).

1-jadval

Turlarning reallar tiplari bo'yicha taqsimlanishi

| № | Arel tiplari | Turlar soni | % hisobida |
|----------|-----------------------------------------|--------------------|-------------------|
| 1 | G'arbiy- Tiynshan-Pomir - Oloy | 3 | 21,5 |
| 2 | Tog'li O'rta Osiyo | 2 | 14,3 |
| 3 | Tarbag'atoy - Tog'li O'rta Osiyo | 1 | 7,1 |
| 4 | Turon | 1 | 7,1 |
| 5 | O'rta Osiyo | 2 | 14,3 |
| 6 | Sharqiy Qadimiy O'rtayer | 1 | 7,1 |
| 7 | Qadimiy O'rtayer | 1 | 7,1 |
| 8 | Golarktika | 3 | 21,5 |
| | Jami: | 14 | 100 |





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Meliboev S. Va b. O'zbekiston florasida uchraydigan dorivor o'simliklar. – Farg'ona: "Farg'ona" nashriyoti, 2018. - 224 b.
2. Рахимова Т.Т. “Ўсимликлар экологияси ва фитоценологияси”. Тошкент, 2009, 72 бет.
3. Pratov O'.P., Jumaev Q. Yuksak o'simliklar sistematikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2003. - 129 b.

